

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 132 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish.....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynutdinova Umida Djalolovna	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash	20
Shakarov Zafar Gafforovich	
Трансформация человеческого капитала в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта в банковскую экосистему	24
С.С. Исмаилов	
“Kreativ iqtisodiyot” va “kreativ industriya”: mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili	32
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari	41
Sh.B. Donayev	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir	45
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish.....	49
Idirisov Alisher Otajonovich	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlarini.....	53
Sultanov Maxmud Axmedovich	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
Amirdjanova Sitara Sunnat kizi	
Факторы, влияющие на успешное функционирование скандинавской модели развития экономики	61
Вохидова Мехри Хасановна	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран	69
Буранова Лола Вахобовна	
Мамлакатimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi.....	78
Babamatov Tolib Xakimovich	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari	83
S.A.Karabayev	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari	90
Yusupov Aziz Shuxratovich	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi	95
Gulbayeva Feruza Islamovna	
Oliy ta'lim muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
Sherov Alisher Bakberganovich	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili	107
Sayidova Maftuna Hamroqul qizi	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	111
Umarova Malika Baxtiyarovna	
Оценка влияния налоговой системы на финансовое состояние организаций.....	116
Умида Юлдашева	
Теоретическое обоснование интернет-маркетинга в социальных сетях.....	120
Арипходжаев Саидамир Фузулиддинович	



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
Ismoilov Sherzod Dilshodovich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilish jarayonlari.....	132
Ziyadullayev G'ayrat Umidulla o'g'li	
Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq risklarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari	138
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
O'zbekistonning xalqaro bozordagi faoliyatini kengaytirishda marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	144
Shadieva Madina Djaloliddin qizi	
Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalari.....	148
Jumanazarova Z.K.	
Xalqaro savdoning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri	154
Rashidov Bekzod Ulug'bek o'g'li, Isayev Laziz Baxtiyorovich	
Oliygochlarni optimallashtirishda sinergiya samarasiga erishish yo'llari	158
Adizov Sanjar Rashidovich	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlash asosida aholi kambag'allik darajasini qisqartirish	165
Xoliyorov Murod Qahramon o'g'li, Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi	



XUSUSIY TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Jumanazarova Z.K.

Oriental universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada xususiy tadbirkorlik va kichik biznes faoliyatini xo'jalik yuritishning kasanachilik, oilaviy biznes asosida rivojlanishi iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil etish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o'rin tutayotganligi, respublika hududlarida tadbirkorlikning YaIM dagi ulushi tahlili, kichik biznes va tadbirkorlik rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil etilgan, tadqiqotlar natijasida ushbu soha faoliyati bo'yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, oilaviy biznes, kasanachilik, bandlik, iqtisodiy o'sish, aholining daromadlari.

Abstract: The article highlights the importance of ensuring economic growth on the basis of entrepreneurial activity in the spheres of small business of private entrepreneurship, housekeeping and family business, organization of new work programs, solving employment problems, increasing incomes and welfare of the population. The article gives an analysis of the share of entrepreneurship in the regions of the republic in the gross domestic product and the gross regional product, analysis of the main macroeconomic indicators of small business development, as well as the conclusions and recommendations made on the basis of research results in this field.

Key words: entrepreneurship; small business; private entrepreneurship; family business; housekeeping; employment; economic growth; income of the population.

Аннотация: В статье подчеркивается важность обеспечения экономического роста на основе предпринимательской деятельности в сферах малого бизнеса и частного предпринимательства, ведения семейного бизнеса, решения проблем занятости, повышения доходов и благосостояния населения. Также дан анализ основных макроэкономических показателей развития частного предпринимательства и малого бизнеса, выработаны выводы и рекомендации, сделанные на основе результатов исследований в этой области.

Ключевые слова: предпринимательство; малый бизнес; частное предпринимательство; семейный бизнес; занятость; экономический рост; доходы населения.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini turli mulk shakllariga asoslangan holda bozor iqtisodiyoti talablari asosida rivojlantirish hozirgi davrning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Milliy iqtisodiyotni erkin raqobat asosida rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatiga olish soddalashtirilgani natijasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2017–2023-yillarda 229 666 birlikdan (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) 417 080 birlikka yoki 1,8 barobarga oshgan. 2023-yil yakuniga ko'ra, respublikamizda jami oilaviy korxonalar soni 44 935 taga yetgan yoki jami tadbirkorlik subyektlarining 10,7 foizini tashkil qilgan, ya'ni 2017-yildagiga nisbatan bu ko'rsatkich 3,84 barobarga ortgan.

Hududlar bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 2023-yilda 64 384 taga yetgan yoki mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan jami tadbirkorlik subyektlarining 15,4 foizini tashkil etgan [1].

Keyingi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotida tadbirkorlik va xususiy sektorning ahamiyati va ulushi ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 21-avgustda mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvida so'zlagan nutqida ta'kidlaganidek, "tadbirkorlar, hech shubhasiz, iqtisodiyotimiz va islohotlarimiz tayanchiga va lokomotivga aylandi" [2].



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son¹ Farmonida: tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish; xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish; sharoiti og'ir bo'lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish; 2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish; hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish belgilab berilgan [3].

Lekin bugungi kunda O'zbekistonda bu sohada hali ishga solinmagan juda katta salohiyat va imkoniyatlar mavjud ekanini, dunyodagi taraqqiy topgan davlatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yalpi ichki mahsulot hajmida yetakchi va hal qiluvchi o'rinni egallayotganini inobatga oladigan bo'lsak, bu yo'nalishda qiladigan ishlarimiz naqadar ko'pligi ayon bo'ladi. Mamlakatimizda tadbirkorlik jadal rivojlanib borayotgan bo'lsada, mazkur sohani yanada rivojlantirish yo'llarini aniqlash va ustuvor yo'nalishlarini belgilash bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Shu munosabat bilan respublikamizda tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish hamda aholi farovonligini oshirish istiqbollarini ilmiy asoslarini chuqur tadqiq etish hamda bu borada tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish muhim vazifalardan sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadbirkorlik tarixiy ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo'lib, u tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi turlicha qarashlar mavjudligi bilan tavsiflanadi. Tadbirkorlikni rivojlantirish bevosita faoliyatning iqtisodiy mohiyatini nazariy jihatdan bilish va o'rganishga bog'liqdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, "Tadbirkorlik" tushunchasi XVIII asrda shakllangan bo'lsada, uning evolyutsiyasi bizning zamonda ham davom etmoqda. Tadbirkorlik faoliyatining dastlabki ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va rivojlantirish masalalari A. Smit, A. Tyurgo, P. Samuelson, R. Xizrich, I. Shumpeter asarlarida atroflicha o'rganilgan.

Kichik biznes va tadbirkorlikning iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari yo'nalishlarida nazariy tadqiqotlar olib borgan xorijlik va milliy iqtisodchi olimlar jumlasiga Filimonova N.M., Morgunova N.V., Lovkova E.S., Burov V.Yu., Lapusta M.G., Cheredanova L.N., Kosheleva T.N., Abdullaev Y.O., Tursunov R.T., Boltaboyev M.R., Qosimova M.S., G'oyibnazarov B.K., Ergashxo'jaeva Sh., Samadov A.N., Otajonov Sh.I., Aripov O., Boboev A. va boshqalarni kiritish mumkin [4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13]. Ular tadbirkorlikning nazariy jihatlarini va o'ziga xos xususiyatlariga oid ilmiy izlanishlari bilan tadbirkorlikni rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Yu.V. Burovga ko'ra, "Yevropaning rivojlangan mamlakatlari tajribasi kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatmoqda. Yevropa Ittifoqining Germaniya, Italiya, Daniya va boshqa rivojlangan davlatlarida kichik tadbirkorlikning yalpi milliy mahsulotdagi ulushi 65-70 foiz va undan ham yuqoriroqni tashkil etmoqda. Natijada, bu mamlakatlarda kichik tadbirkorlik nafaqat bandlik muammosini hal etish va aholi daromadlari o'sishiga sabab bo'lmoqda, balki makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida ham yuzaga chiqmoqda"[5].

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati, birinchi navbatda, insonlarning alohida qobiliyati bo'lgan tadbirkorlik qobiliyatiga tayanadi. L.N. Cheredanovanning ta'rif berishicha, "tadbirkorlik qobiliyati – ishlab chiqarishning alohida omili, u barcha omillarni yagona ishlab chiqarish jarayoniga birlashtiradi. Tadbirkorlik qobiliyati – bu shijoatli qarorlar qabul qila olish hamda zarur hollarda tavakkalchilikka bora olish qobiliyatidir" [7].

N.Koshelevaning fikricha, "tadbirkorlik faoliyati – bu belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan, mulkdan foydalanish, tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan doimiy foyda olishga qaratilgan, tavakkalchilik asosida mustaqil amalga oshiriladigan tashabbuskor faoliyatdir" [8].

O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-328-sonli yangi tahrirda tasdiqlangan Qonuniga ko'ra "tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir" [8].

Ko'pchilik iqtisodchi olimlar bozor iqtisodiyoti xususiy mulkchilik, tanlov erkinligi, shaxsiy manfaatlar ustuvorligi va adolatli raqobatga asoslangan, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi maksimal darajada cheklangan iqtisodiy tizim ekanligini ta'kidlaydilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishining nazariy-metodologik asoslari sifatida O'zbekiston Respublikasining tadbirkorlikka oid qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qarorlari va asarlari, mazkur masala yuzasidan

¹ lex.uz/ru/docs/-5841063



ilmiy tadqiqotlar olib borgan iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlari xizmat qiladi. Maqolada tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, qiyoslash (taqqoslash), monografik kuzatuv, statistik (dinamik qatorlar va boshqa) usullardan foydalanilgan.

TAHLILLAR VA TADQIQOT NATIJALARI

Respublikamizda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil etish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o'rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, ularni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni izchil rivojlanib borishini ta'minlash orqali biz jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo'lgan o'rta sinfning shakllanishiga va uning tobora mustahkam bo'lib borishiga erishmoqdamiz. Shu bois kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bugungi kunda jamiyatimizdagi ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning kafolati hamda tayanchiga, yurtimizning taraqqiyot yo'lidan faol harakatlantiradigan kuchga aylanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyoti va tarmoqlardagi salmog'i yirik ekanligini qayd etish joiz (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi salmog'i, jamiga nisb. %da.

Ko'rsatkichlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2023 y. 2019 y.ga nisb. %
Yalpi ichki mahsulot	65,3	62,4	56,0	55,7	54,9	- 10,4
Bandlik	78,0	76,3	76,2	74,5	74,4	- 3,6
Sanoat	41,2	37,4	25,8	27,9	27,0	-14,2
Qurilish	64,8	73,2	75,8	72,5	72,4	+7,6
Investitsiya	34,8	38,0	47,0	46,0	47,9	+13,1
Eksport	22,0	27,2	27,0	20,5	22,3	+0,3
Import	53,6	56,2	61,6	51,7	48,7	- 4,9
Savdo	88,3	86,3	84,3	82,3	82,1	-6,2
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	98,1	98,3	98,3	96,7	96,7	- 1,4
Xizmatlar	58,4	56,0	52,1	51,8	51,1	- 7,3
Yuk tashish	54,2	55,5	54,6	51,6	49,4	- 4,8
Yo'lovchi tashish	90,1	89,6	90,7	93,5	92,8	+ 2,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik. 2023-yil. Toshkent-2023.–1-2 b. <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>

Xususan, kichik tadbirkorlik subyektlarining mamlakat Yalpi ichki mahsulotidagi (YalIM) ulushi muttasil oshib borib, 2023-yil yakunlari bo'yicha 54,9; qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 96,7; qurilish ishlarida 72,4; xizmatlar hajmida 51,1; sanoat ishlab chiqarishida 27,0; investitsiyalar hajmida 47,9; eksportda 22,3 va importda 48,7; yuk tashishda 49,4 foizni tashkil etgan.

2023-yilning 18-avgust kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha "uzluksiz xizmatlar zanjiri"ni yaratish maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligi, "Biznesni rivojlantirish banki" aksiyadorlik tijorat bankining (keyingi o'rinlarda - Biznesni rivojlantirish banki) 2023-yil 1-oktabrdan boshlab "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturini amalga oshirish haqidagi taklifi ma'qullandi.

Dasturni 2023–2026-yillarda amalga oshirish uchun davlat mablag'lari hisobidan 6 trillion so'm va xalqaro moliya institutlarining 1,2 milliard AQSh dollari miqdoridagi mablag'lari ajratilishi aytiladi.



Quyidagi 2-jadvalda iqtisodiyot tarmoqlari kesimida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2019–2023-yillar oralig'ida keltirilgan.

2-jadval. Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni, (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, birlikda).

Tarmoqlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2023- yil. 2019-yilga nis., %
Jami	92874	93214	98886	90177	86030	92,6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7469	14969	11710	12018	9388	125,7
Sanoat	19496	18596	19285	16191	14101	72,3
Qurilish	8730	6009	6330	4795	4859	55,7
Savdo	36300	35213	38459	34384	33470	92,2
Tashish va saqlash	2953	2397	2642	3355	3946	133,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7233	5637	6621	5812	5955	82,3
Axborot va aloqa	1629	1917	2521	2617	2932	180,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	1269	1450	1760	1498	1458	114,9
Boshqa turlari	7795	7026	9558	9507	9921	127,8

Manba: O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Toshkent-2023. www.stat.uz

Jadvaldan ma'lumki, iqtisodiyot tarmoqlari kesimida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2019–2023-yillar oralig'ida 92 874 dan 86030 birlikka yoki 7,4 %ga kamaygan. Shunday kamayish tendensiyasini sanoat (27,7 %), qurilish (44,3 %), savdo (7,8 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida (17,7 %) kuzatish mumkin. Ammo qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (25,7 %), tashish va saqlash sohasida (33,6 %), axborot va aloqa sohasida (80,0 %) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (14,9 %) o'sishni kuzatish mumkin (2-jadval).

Kichik biznes subyektlari mamlakatimizda aholi bandligini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega (3-jadval).

3-jadval. O'zbekistonda ish o'rinlarini yaratishda kichik biznes subyektlarining ulushi.

Ko'rsatkichlar nomi	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda band bo'lganlar soni, ming kishi	10541,5	10128,8	10318,9	9865,7	10070,7
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdagi band bo'lganlarning jami iqtisodiyotdagi band bo'lganlar soniga nisbatan ulushi, foiz hisobida	78,0	76,3	76,2	74,5	74,4

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.. O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik. Toshkent-2023.—1-2 b. <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>.

Tahlil etilayotgan 2019–2023-yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlarning mamlakat bo'yicha jami bandlar sonidagi salmog'i 78,0 dan 74,4 foizga pasaygan.

Tahlillarga ko'ra, respublikamizda kichik tadbirkorlikni rivojlanishiga quyidagi omillar salbiy ta'sir ko'rsatmoqda:

- kichik tadbirkorlikning rivojlanishi uchun mavjud bo'lgan mehnat, xomashyo, ilmiy-texnik va boshqa salohiyatdan to'liq foydalanilmayapti;
- kichik tadbirkorlik subyektlarida biznesni boshlash va kengaytirish uchun daslabki sarmoya hamda ortiqcha mablag'larning yetishmasligi;



- kichik tadbirkorlik subyektlarida ishlab chiqarishni moliyalashtirish uchun xususiy kapital yetarli emas, bank kreditlari garov ta'minoti yetishmasligi va rasmiylashtirish qiyinligi tufayli barcha tadbirkorlar uchun ochiq emas;
- kreditni sug'urtalash, kafolat bilan ta'minlash hamda uni qaytarish bilan bog'liq muammolar mavjud;
- kichik tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi bank tizimi va boshqa infratuzilmalarning yetarli darajada taraqqiy etmaganligi;
- ishlab chiqarish vositalari va iste'mol bozorining yaxshi taraqqiy etmaganligi oqibatida mol yuboruvchilar va xaridorlar o'rtasidagi munosabatlarning chigallashuvi;
- ayrim holatlarda kichik tadbirkorlik mahsulotlarining sifati yuqori emasligi oqibatida talabning nisbatan pastligi;
- ba'zi hollarda mansabdor shaxslar tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarining qonuniy huquqlari buzilishi va manfaatlariga putur yetkazilishi;
- - kichik tadbirkorlik sohasida puxta tayyorlangan, savodli va ishbiarmon menejerlar va mutaxassislar tayyorlash tizimining nomukammalligi va boshqalar.
- Qishloq xo'jaligi sohasidagi kichik tadbirkorlik subyektlari, ya'ni dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish uchun ichki imkoniyatlar yaxshi ishga solinmagan. Jumladan:
- - fermer xo'jaliklarini majburan tumanda yagona bo'lgan klasterga birlashtirish natijasida klasterlar fermerlarga o'zlarining monopol mavqeyidan foydalanib og'ir shartlarni o'tkazmoqda;
- - tumandagi dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari uchun mineral o'g'itlar, urug'lik va ko'chat materiallari, yonilg'i va boshqa resurslar hamda turli xizmatlar ko'rsatish yaxshi yo'lga qo'yilmagan.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish orqali raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun quyidagicha xulosaga kelish mumkin:

- respublikamiz viloyatlarida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish uchun mahalliy hokimiyat boshqaruvi tomonidan tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning zaruriy shart-sharoitlarini yaratib berish, ishlab chiqarish va iste'mol tovarlari viloyat aholisining iqtisodiy holatlarini e'tiborga olgan holda narxlarining asossiz o'sishini oldini olish zarur;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishdan asosiy maqsad nafaqat aholini ish bilan bandligini ta'minlash, mahalliy resurslardan samarali foydalanish asosida mahalliy sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, balki mamlakatning eksport salohiyatini ham oshirishdir;

- viloyat tumanlari bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishini tahlil qilish asosida tumanlarda kichik biznes tadbirkorligi yo'nalishlari bo'yicha tumanlardagi uning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi viloyatning o'rtacha ko'rsatkichlaridan past va uning asosiy sabablari mahalliy tabiiy resurslardan foydalanmasligi, xorijiy va mahalliy investitsiya kiritish hajmining turli darajada ekanligi, zaruriy xomashyo bilan ta'minlanmaganligi kreditga to'lanadigan foizlarning yuqoriligidir;

- viloyatlarda kichik biznes shaklida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishni tashkil etish kam investitsiya mablag'larini talab etib, ularning bozor konyunkturasi talablariga tez moslasha olishiga imkon beradi;

- ishlab chiqarish tadbirkorligi faoliyatini olib borishda, huquqiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar o'zaro bog'liqlikda amalga oshirilishi uning samarali inqirozsiz rivojlanishini ta'minlaydi;

- tadbirkorlik subyektlarini qishloq joylarida, aholi zich yashaydigan hududlarda joylashtirilishi bozor iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini va ishlab chiqarish kuchlarini ish o'rinlari bilan ta'minlashni, mahalliy xomashyo resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi;

- tadbirkorlik faoliyati o'zining xususiyati va turlariga qarab ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy va maslahat tadbirkorliklaridan iborat bo'lib, ular mustaqil subyekt sifatida bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zaro bog'liqlikda faoliyat olib borishlari zarur. Buning uchun viloyat tumanlarida innovatsion moliyalashtirish, pul-kredit, axborot, konsalting, franchayzing, injiniring va lizing xizmatlari tadbirkorligini raqobat asosida tashkil etish zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqib respublikamizda kichik tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish uchun, birinchi navbatda, hududlarning imkoniyatlari va salohiyatini chuqur tahlil etish asosida tizimli yondashish, har bir hududda kichik tadbirkorlikning rivojlanish ko'rsatkichlaridan kelib chiqib rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tadbirlarini kuchaytirishni tavsiya etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi. www.stat.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 21-avgustda mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so'zlagan nutqi. www.prezident.uz



3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. www.lex.uz.
4. Филимонова Н.М., Моргунова Н.В., Ловкова Е.С. Экономика и организация малого и среднего бизнеса. Учебное пособие. –М.: Инфра-М, 2020. –222 с.
5. Буров В.Ю. Основы предпринимательства. Учебное пособие. – Чита, ЗабГУ, 2018. –296 с.
6. Лапуста М.Г. Малое предпринимательство. Учебник. –М.: ИНФРА-М, 2018. –685 с.
7. Череданова Л. Н. Основы экономики и предпринимательства: учеб. для учащихся учреждений нач. проф. образования. – М.: Издательский центр "Академия", 2013. –7 с.
8. Кошелева Т. Н. Основы предпринимательской деятельности. –СПб.: Издательство Санкт-Петербургской академии управления и экономики, 2009. –8 с.
9. Abdullayev Y.. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. –T.: Fan va texnologiyalar, 2000.
10. Tursunov R.T. va boshq. Biznes strategiyasi. Darslik. – T.: Barkamol Fayz media nashriyoti, 2017. –380 b.
11. Boltaboyev M.R., Qosimova M.S., G'oyibnazarov B.K., Ergashxo'jayeva Sh., Samadov A.N., Otajonov Sh.I. Kichik biznes va tadbirkorlik. O'quv qo'llanma. –T.: Noshir, 2012.
12. Арипов О. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikни давлат томонидан тартибга солиш. –Т.: Фан, 2012. –274 б.
13. А.Бобоев. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikнинг ҳозирги ҳолати// "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журналы, №2, март-апрел, 2017.
14. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 3-maydagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri). www.Lex.uz.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

